

HAYVONLAR BIR-BIRINI TUSHUNADIMI?

Bunda biz basharti hayvonlarning belgilar yoki tovush signallari orqali bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini nazarda tutsak, «ha» deb, agar inson tili kabi muloqot nazarda tutilayotgan bo'lsa, «yo'q» deb javob beramiz.

Hatto odamlar o'rtasida ham muloqot doimo so'zlar yordamida bo'lmaydi. Insonda g'azabni ifodalashning o'ziga xos usullari: befarqlikni ifodalash uchun yelka qisish; bosh irg'ash va sarak-sarak qilish; imo-ishoralar va boshqa ko'plab xatti-harakatlar mavjud. Ko'pchilik hayvonlar xuddi shu usullarni hid va belgilar yordamida ifodalaydi. Ot kishnaganda yoki depsinganda, boshqalar bunimuayyan signal tarzida qabul qiladi. Ayrim hayvonlar sezilar-sezilmas belgi va tovushlarni tushunishlari mumkin. Qush faqat tevarak-atrofga qarab olish uchun shoxga qo'nganda, boshqa jonzorlar jim turadi. Ammo ular qushning niyati boshqachaligini sezganda, uning uchib ketgani ma'qulligini tushuntirib qo'yadi va qush shunday ham qiladi.

Itlar har xil usullar yordamida muloqot qiladi. Ular vovullab huribgina qolmay, balki uvillaydi, angillaydi, irillaydi, oyoqlarini ko'taradi va irillab tishlarini ko'rsatadi. Bunday paytda boshqa itlar har bir holat nimani anglatishini yaxshi biladi.

Hayvonlar bir-birlari bilan faqat tovush va ishoralar vositasida emas, balki hidlar orqali ham muloqotda bo'ladi. Masalan, bu pada bo'lib yuruvchi hayvonlarga bir to'p bo'lib yurishlarida yordam beradi. Hid it uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanligini siz, albatta, yaxshi bilasiz.

Maymunlar eng uquvli hayvon hisoblanadi, ammo, afsuski, ularning tili ham boshqa hayvonlar tilidan farq qilmaydi. Ular g'azab, ochlik yoki qoniqish hissiyatini ifodalashda tovush va imo-ishoradan foydalanadi. Ammo ularda inson nutqiga yaqin keladigan hech narsa yo'q.

Gaplashishni o'rganishiga to'g'ri keladigan insondan farqli o'laroq, maymunlar va boshqa hayvonlar o'z tilini tug'ilganidan boshlab biladi. Ular o'z turlariga xos bo'lgan signallarni, hatto o'ta o'zlariga o'xshash jonzorlarni hech qachon ko'rmagan bo'lsada, bera oladi.

Hayvonlar hatto bir-birlari bilan yaqin aloqaga kirishganlarida ham faqat hissiyot va intilishni ifodalaydi, xolos, haqiqiy «so'zlashuv» ularda ro'y bermaydi.

HAYVONLARNI O'QITIB BO'LADIMI?

Hammasi «o'qitish» deganda nimani tushunishimizga bog'liq. Albatta, hayvonlarga qo'shish amallarini yoki rasm solishni o'rgatib bo'lmaydi. Ammo ularni tug'ilganlaridanoq xos bo'lgan instinktlarga nisbatan boshqacharoq tutishga o'rgatish mumkin bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, barcha guruhlardagi hayvonlarni o'rgatish mumkin, deya olmaymiz. Chunki ular aksariyatining xatti-harakat

xususiyatlari to'g'risida biz deyarli hech narsa bilmaymiz. Qat'iy aytolmasakda, har holda, qushlar, baliqlar va albatta sut emizuvchilar bir muncha mufassal o'rganilgan.

Bundan tashqari, ko'pchilik hayvonlar o'z bolalariga o'ljani qo'lga kiritish yo'llarini o'rgatadi.

Ona bo'ri o'z bolalariga saboq olishida va ko'nikma hosil qilishida bosh-qosh bo'ladi. Buning uchun u uyasiga chalajon hayvonni sudrab keladi va ov usullarini bolalariga o'rgatadi.

Sherning bolalari bir-biri bilan bamisoli kelajakda o'z o'ljalariga qanday tashlanishni mashq qilgandek o'ynashadi. Mushuk ham sichqonni qanday ovlash kerakligini bolalariga shu yo'sinda o'rgatadi.

Hayvonlarni o'rgatish ko'p hollarda odamlarga katta foyda keltirishi mumkin. Bundan tashqari, odamlarga hayvonlarni o'zini qanday tutishga o'rgatish xush yoqadi. Gap shundaki, bolalar bilan hayvonlarni o'rgatish o'rtasida unchalik jiddiy farq yo'q. Shuning uchun ham o'rgatilgan hayvonlar fe'l-atvoridagi ko'p jihatlarni o'rganish, inson xatti harakatini aniqlab olishimizga yordam beradi.

HAYVONLAR SANASHNI BILADIMI?

Ehtimol, sizga sirkda oddiy arifmetik masalalarni yecha oladigan, o'rgatilgan tyulenlar, ayiqlar, itlarni ko'rish nasib etgandir. Shunday paytda bu hayvonlar sanashni bilar ekanda, degan tasavvur paydo bo'ladi, to'g'ri emasmi?

Ammo aslida hech ham bunday emas. Bu holatda tyulen yoki it o'z o'rgatuvchisidan «ko'rsatma» oladi, xolos. «Beshdan ikkini ayirsak, qancha qoladi?» — savoliga uch marta vovullab javob qaytargan it o'z egasidan tomoshabinlarga sezdirmay berilgan signal, masalan, bosh siltash asosida to'xtaydi.

Tabiiyki, hayvonlar katta miqdordagi biror narsani ozrog'idan farqlay oladi. Ularning ko'pchiligi biriga beshta, ikkinchisiga oltita yemish solingan ikkita savatdan oltita yemish solinganini tanlaydi. Ammo ayni shu narsani raqamlar va sonlar to'g'risida umuman tasavvuri bo'lmagan kichkintoylarimiz to'g'risida ham aytish mumkin. Biroq ko'pni ozdan ajrata bilish va sanay olish — bu ayini bir narsa degani emas.

Shunday bo'lsa-da, olimlar hayvonlar va qushlarning ayrim turlari haqiqatan ham sanash qobiliyatiga ega deb taxmin qiladilar. Bunday fikrni tasdiqlash maqsadida olib borilgan tadqiqotlardan birida kaptarga donni bittalab sanab berishgan. Bunda har safar oltita sifatli dondan so'ng unga yeyishga yaroqsiz yettinchi don berilgan. Ma'lum vaqt o'tgach, kaptar oltitagacha sanashni o'rgangan va unga yettinchi donni berishganda, u hatto donga qayrilib qo'ymagan.

Yana bir tajribada shimpanzega yerdan bitta, ikkita, uchta, to'rtta yoki beshta tayoqchani terib olish va qancha so'ralsa, shuncha berishga o'rgatishgan. Ammo tayoqchalar soni beshtadan ortgach, shimpanze adashgan va xato qila boshlagan.

HAYVONLAR QANCHI UXLAYDI?

Uyqu — barchaga taalluqli hodisa. Jami tirik mavjudot unga ehtiyoj sezadi. Uyquning davomiyligi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Rossiya Yevropa qismining markaziy va janubiy mintaqalarida uyquni nihoyatda yaxshi ko'radigan mo'jazzgina bir hayvon yashaydi. Uning nomini ham uyquchi deb atashadi. Butun kunni u daraxt kovagidagi uyasida betashvish uyquda o'tkazadi, faqat qorong'i tushgandagina bir ozchigilni yozish va ul-bul iste'mol qilib olish uchun 2—3 soatga uyg'onadi. Uy hayvonlari ham ko'p uxlaydi: ular yovvoyi avlodlari emish izlashga sarflaydigan vaqtni tejaydi. Ertalab ishga ketayotib xonadonda qoldirib ketilgan it, odatda, butun kun bo'yi egalari qaytgunga qadar uxlaydi, ammo tunda ham. uyqusizlikdan azoblanmaydi. qushlarning ko'pchiligi qorong'i tushishi bilan uyquga ketadi. Faqat bahorda — juftlashish davri kelganda ular kechqurunlari va tong saharda, Shimolda esa butun tun bo'yi ishqiy navolar aytib chiqadi.

Ochofatlar hammadan kam uxlaydi. Ko'rsichqon bir kunda juda ko'p miqdorda qurtlar va hasharotlarni to'plashi kerak bo'ladi, uxlash uchun unga besh soatcha vaqt qoladi.

Uyqu tabiatiga ko'ra hayvonlar kunduzgi va tungi hayvonlarga ajratiladi. Garchi odamlar kunduzgi mavjudotlarga mansub bo'lsalar-da, ko'plarga kunning ikkinchi yarmida, kechqurun va hatto tunda ishlash osonroq tuyuladi. Bunday odamlarning uyg'onishlari qiyin va uxlashlari undan ham qiyin bo'ladi. Boshqalar, aksincha, ertalab o'rinlaridan yengilgina va sakrab turadilar, kunning birinchi yarmida sermahsul ishlaydilar, kechqurun esa erta uxlashga yotadilar. Tunda ishlash bunday kishilar uchun azobning o'zginasidir. Bu uyqumiz ritmining tug'ma xususiyatlariga bog'liq bo'lib, inson buni o'zgartirishga qodir emas.

Kichik yoshdagi bolalar va uy hayvonlari tunu kun bir necha marta uxlaydi. O'z uyqusini mayda-mayda qismlarga bo'ladigan hayvonlar ham mavjud. Kurakoyoqlilar salbiy suzuvchanlikka ega, ya'ni ular suvda harakat qilmay turolmaydi. Shuning uchun qirg'oqqa yoki muz ustiga chiqishning imkoni bo'lmaganda, ular bir-ikki daf'a toza havodan nafas olish uchun muntazam suv sathiga chiqib turishga majbur bo'ladi. Shimoliy dengiz fili esa suv tubida uch-to'rt minut uxlaydi. Ammo qattiq o'rinda ham ular to'yguncha uxlay olmaydi. Muz ustiga chiqib olgan nerpa, bor-yo'g'i ikki-uch minut uxlaydi, so'ngra boshini ko'tarib u yoq-bu yoqqa alang-jalang qaraydi va xavf yo'qligiga ishonch hosil qilgach, yana ikki-uch daqiqaga uyquga ketadi.

HAYVONLAR DUMLARIDAN QANDAY FOYDALANADI?

Turli hayvonlar dumlaridan turlicha foydalanadi. Olmaxon, suvsar va maymunlarning ayrim turlari dumlari bilan shoxlarga yopishib yoki yuqorida ular vositasida muvozanat saqlab, arqon sifatida foydalanadi. Kenguru o'zining uch metrlik dumida taburetkada o'tirgandek o'tiradi, qushlar esa dumlaridan rul yoki tormoz sifatida foydalanadi. Ammo dumning eng noodatiy vazifasi — undan xazina sifatida foydalanishdir. Mulkingni o'zing bilan olib yurishga nima yetsin. Qo'shtuyoqlilar, echkamarlar ortiqcha yog'ni dumining asosida to'playdi. Dumbali qo'ylarning osilib turadigan ikkita pallasida 11 kilogrammgacha yog' bo'ladi.

Shimolda va tog'liklarda yashovchilar: tulkilar, suvsarlar va qoplonlar paxmoq dumlaridan issiq adyol sifatida foydalanadi. Tulki qishda uyadan foydalanmaydi. Kechasi u qor ustida yotadi, g'ujanak bo'lib, oyoqlarini ichiga oladi, tanasining tuklar bilan himoyalangan yagona qismi — burnini dumi bilan yopadi.

Hayvonlar dumlaridan saqlovchi arqon yoki beshinchi qo'l sifatida foydalanadi. Shimoliy Amerika opossumlarining dumi uzun va kuchli bo'ladi. Opossum (qopchiqli kalamush) daraxtlar shoxlarida yurar ekan, dumi bilan shoxlarga yopishadi va hatto unda osilib turishi mumkin. Uya qurar ekan, urg'ochisi xashakni donalab yemas, balki dumi bilan o'rab, bog'lamlab olib keladi. Avstraliyaning eng kichik kengurularidan biri — cho'tkadumli kalamush kenguru ham shunday qiladi.

Dumi baquvvat maymunlarda dum beshinchi qo'l vazifasini bajaradi. Ular dumlarini daraxt shoxiga o'rab olib, qo'llarini boshqa foydaliroq ish uchun bo'shatadi. Ba'zida, aksincha, oyoqlari bilan daraxtga yopishib, dumi bilan pishgan mevalarni uzib og'ziga soladi. Dum beshinchi qo'l vazifasini o'tashi uchun undagi yung siyraklashadi, ko'pincha jun umuman bo'lmaydi yoki loaqal dumning uchidan foydalanganda halaqit bermasligi uchun tuksiz bo'ladi.

Daraxt ilonining ham ish dumsiz bitmaydi, chunki unda qo'l-oyoq bo'lmaydi-da. Ilon dumining uchi bilan shoxga yopishib, o'zining ingichka bir yarim-ikki metrli tanasini pastga osiltiradi va boshini quyi osiltirgancha tayanch izlaydi, agarda uni topolmasa, dumi bo'ylab o'zi hozirgina osilib tushgan shoxga qayta ko'tariladi.

NIMA UCHUN HAYVONLAR O'Z HUDUDLARINI BELGILAYDI?

Sibir o'rmonlarini kechganda quyidagi qiziqarli bir hodisaga duch kelinishi tabiiy. Ya'ni Sibir bug'ulari bir qarashda g'aroyib ish bilan bandday ko'rinadi — ular kichikroq daraxtlar va butalar po'stlog'ini shoxlari bilan tiladi, so'ngra o'sha yerga boshlari va bo'yinlari bilan ishqalanadi. Gap shundaki, tananing shu qismlarida joilashgan yog' va ter bezlari daraxtlarda hudud band etilganligidan dalolat beruvchi o'ziga xos belgilar qoldirish imkonini beradi. O'ziga tegishli joylarni belgilashning boshqa usullari ham bor, ammo usullarning kimyoviysi afzal hisoblanadi. Aytaylik, ayni shu bug'ular tuyoqlari

bilan yerni o'yadi, natijada bu yerda barmoqlar orasidagi sekret bezlarining hidi uzoq muddat saqlanib qoladi.

Antilopalar boshqa usuldan foydalanadi — ular o'z «dastxat»larini butalar va baland bo'yli o't-o'lanlar uchlarini tishlash va ularga darhol ko'z oldi bezlarini tekkizish orqali qoldiradi. Kemiruvchilar qo'yadigan belgilar juda qiziq bo'ladi. Yirik qumsichqon, odatda, o'zi turgan yerni uyib signal uyumlarini hosil qiladi va ularni qorni bilan tekkislaydi, unda qorin o'rta bezlari ajratadigan feromonlar (maxsus kimyoviy moddalar) joylashgan bo'ladi. Quyonlar inga kirish joyini iyak osti, bo'rsiq — dum osti sekreti bilan belgilaydi.

Ayrim hayvonlar feromonlarni hatto qurol qilib olganlar. Masalan, sassiqqo'zan dushmanlardan himoyalana ekan, o'ta badbo'y hid — o'lat isi deb atalmish qo'lansa hidning ko'p miqdordagi juda achchiq sekretini ishga soladi. Undan o'rdakburun ham qolishmaydi, u ham kezi kelganda badbo'y hidli qurolidan foydalanib, oyoqlariga joylashgan bezlaridan zaharli sekret chiqaradi.

EXIDNA NIMA?

Exidna — uchratish mumkin bo'lgan g'ayrioddiy hayvonlardan biridir. Exidnaning tirnoqlari uzun, tumshug'i naychasimon va tipratikan yoki jayra ignasi yoki nayzasini eslatuvchi kalta, qattiq tikanaklar bilan qoplangan. Ammo eng g'aroyibi — bu sut emizuvchi tuxum qo'yadi!

Bundan tashqari, u garchi sut emizuvchi hisoblansada, unda xuddi qushlardagi kabi bitta chiqarish teshigi bo'lib, u ham tuxum qo'yishga, ham ichni bo'shatishga xizmat qiladi. Shuning uchun exidnani va o'rdak-burunni «qush-hayvonlar» deb atashadi.

Exidna yer kavlaydi ham o'zining asosiy ozig'i bo'lgan chumolilar va hasharotlarni tutib yeydi. Exidna Avstraliya va Yangi Gvineyada yashaydi. Uning tumshug'i cho'ziq va ingichka, naycha shaklida bo'ladi. Uning oyoqlari kalta va kuchli, uzun, qayrilgan tirnoqlari bo'lib, ular yerni kovlashga xizmat qiladi. Exidnaning tili uzun va yopishqoq, hasharotlarni tutish uchun cho'zilish qobiliyatiga ega. Yangi Gvineyada yashaydigan exidnaning uzunligi 80 saytimetrga yetishi mumkin, uning Avstraliyadagi turi esa bir muncha kichikroq bo'ladi.

Bola parvarishlash davrida exidna qornida orqa tomonga ochiladigan xaltacha paydo bo'ladi. Tuxumni qanday qilib u yerga tushib qolishini hech kim aniq aytib berolmaydi. Har holda exidna tuxum qo'yayotgan vaqtda tuxum to'g'ri shu xaltachaga tushadigan qilib buralsa kerak.

U tuxumlarni bola ochguncha ko'tarib yuradi va bolalar xaltacha torlik qilib qolguncha unda yashaydi. Ona ovga chiqqanda bolalarini birorta uyada yoki pana joyda qoldiradi.

Xavf tug'ildi deguncha exidna darhol turgan joyida yerga ko'miladi va dushman ko'z oldida o'tkir ignalargina qoladi. To'liq yerga ko'milishi uchun exidnaga bir necha daqiqa kifoya.

O'RDAKBURUN NIMA?

O'rdakburun — shunday g'aroyib mavjudotki, dastlab odamlar uning borligiga ishongilari kelmagan. Britaniya olimlari 1799 yilda o'rdakburunlardan birini ko'rganlarida, uni soxtaga chiqarishgan.

U nimasi bilan g'aroyib? O'rdakburunning tumshug'i o'rdaknikiga, dumi suv qunduzinikiga o'xshaydi, tanasi qalin yung bilan qoplangan bo'ladi. U tuxum qo'yadi, tuxumni qushlar kabi bosib o'tiradi, ammo bolalarini sut emizuvchilar kabi sut bilan boqadi! Uning oyoqlari pardali va u suvda ham, quruqlikda ham yashay oladi.

O'rdakburun Sharqiy Avstraliyada va Tasmaniyada yashaydi. Uning tashqi quloqlari yo'q, burun teshiklari yumshoq rezinadek tumshug'ining uchiga joylashgan. O'rdakburun tumshug'ining uchini chiqarib, butun tanasi bilan suvga botib tura oladi.

Hayvonning oldingi oyoqlari suzishga moslashgan, o'rdakburun yerda yurganda pardalar oyoq kafti tagiga yashirinadi va tirnoqlar tashqariga chiqadi. Urg'ochisi bittadan uchtagacha tuxum qo'yadi. U tuxumni bolalari ochib chiqmaguncha bosib o'tiradi.

Bolalar sut bezlaridan sizib chiquvchi ona sutini yalaydi. Bolalar tishli tug'iladi, ammo tez orada ular tushib ketadi va o'rdakburunlar tumshug'ining yon tomonlarida joylashgan qattiq muguz bo'rtiqlardan tish o'rnida foydalanadi.

Dunyoda yagona zaharli sut emizuvchi — bu erkak o'rdakburundir. Uning yonbosh tarafida maxsus zaharli bezlar mavjud. Bu bezlardan uzun naychalar orqa oyoqlardagi tarnovsimon o'simta tomon cho'zilib boradi. Zahar ilon zahariga juda o'xshab ketadi. Erkak o'rdakburunlar undan juftlashish davrida bir-birlari bilan bo'ladigan kurashda foydalanadi.

O'rdakburunlar tunda yer chuvalchaglari, suv hasharotlari va daryo qisqichbaqalarini tutib oziqlanadi. Kunduzi ham ular loyqa joylashgan uyalariga kirib oladi.

CHUMOLIXO'RLAR QANDAY MAVJUDOT?

Chumolixo'rlar — odatda qirchumoli deb ataluvchi oq chumolilarni tutib yeydigan hayvonlardir. Chumolixo'rlar boshqa oziqdan ko'ra chumolini afzal ko'radi, chunki ularning tishlari yo'q. Ularning ancha cho'zinchoq jag' suyaklari deyarli to'liq teri bilan qoplangan bo'ladi.

Chumolixo'rning og'zi juda kichkina, chuvalchangsimon tilining uzunligi o'ttiz santimetr dan ortiqroq va yopishqoq modda bilan qoplangan. Chumolixo'r qirchumolini ko'rganda uzun tilini chiqaradi. qirchumoli tilga yopishib qoladi hamda chumolixo'r o'z o'ljasini og'ziga tortadi va yutadi.

Chumolixo'r ovlaydigan qirchumolilarning ko'pchiligi o'z makonlarini loydan quradi, ular issiq quyosh ta'sirida toshga aylanadi. Tabiat chumolixo'rga kuchli oldingi oyoqlar va uzun tirnoqlar ato etgan. U bulardan qirchumolilar uyalarini buzishda foydalanadi.

Chumolixo'rlarning bir-biridan keskin farq qiluvchi uch turi mavjud. Ulkan chumolixo'r yerda yashaydi. Uning uzunligi — ikki metrdan ortiq, bundan taxminan o'ttiz santimetrini bosh va oltmish santimetrini dum tashkil qiladi. Uning yungi dag'al va uzun bo'ladi. Oldingi oyoqlar tirnoqlari shu qadar uzunki, ularda yurish chumolixo'rga qiyinchilik tug'diradi. Unga oyoqlarini kaftining tashqi tomoni bilan yerga qo'yishga to'g'ri keladi. U tunda ovga chiqadi, butun kun mobaynida uxlaydi.

Tamandua, ya'ni Amerika chumolixo'ri ancha kichik bo'ladi. Uzunligi taxminan bir metr bo'lib, uning juni ham kalta. Tamanduaning dumi juda ko'p vazifalarni bajaradi. Agar Amerika chumolixo'rining dumi bo'lmaganda, daraxtlarda — o'zining asosiy istiqomat joyida yashay olmagan bo'lardi.

Ipaksimon chumolixo'r — barcha chumolixo'rlarning eng kichigidir. Uzunligi ellik santimetrcha keladi. Uzunligining yarmi dumiga to'g'ri keladi. Dumi tufayli daraxtda yashay oladi. U butun kunni g'ujanak bo'lib olib daraxt shoxida o'tkazadi. Bu chumolixo'r Janubiy Meksikadan Braziliyagacha bo'lgan hududda uchraydi.

BRONENOSETS NIMA?

«Bronenosets»ning nimaligini bilasizmi? Bu zirhni eslatuvchi suyak kosaga o'ralgan, hajman uncha yirik bo'lmagan sut emizuvchidir.

Amerika qo'shma Shtatlari janubidan Janubiy Amerika janubiygacha bo'lgan hududda bronosetsning o'nta turi yashaydi. Bronosetsning ust tomoni suyak kosa bilan qoplangan, u boshda bitta va orqasida ikkita yassi qattiq jismdan iborat bo'ladi. Bu ikkala qismni harakatchan tasmalardan iborat egiluvchan markaziy qism birlashtirib turadi. Bu bronosetsning aylanishi va u yoq-bu yoqqa qarashiga imkon beradi.

Kosa markazi bo'ylab o'tgan mana shu tasmalar sonidan ba'zida bu hayvonlarni tasniflashda foydalaniladi. Masalan, yetti tasmali, sakkiz tasmali, to'qqiz tasmali bronosetslar mavjud. Amerika qo'shma Shtatlarida to'qqiz tasmali bronosetslar yashaydi. Barcha bronosetslar dumi suyak bilan qoplangan bo'ladi. Bundan ularning bitta turi mustasno, tabiiyki, u yumshoq dumli deb yuritiladi!

Qizig'i shundaki, emalsiz oddiy o'simtalar bronosets uchun tish vazifasini o'taydi. Bu tabiatda behisob bo'lgan ziddiyatlardan biridir. Tanasi qattiq — tishlari yumshoq. Hayvonlarning ko'pchiligi dastlabki tishlardan butun umr bo'yi foydalanadi.

Shunday tishlarga ega bo'lgan bronosets yumshoq oziq — chumolilar, qirchumolilar, qurtlar, chuvalchanglar va qo'ng'izlar bilan kifoyalanishga majbur. Sizga ma'lumki, bunday oziq barglar orasida yoki yumshoq yerda bo'ladi, shuning uchun

bronenosets uni kavlab olishi kerak. Tabiat bronenosetsga bergan yumshoq tishlar hissasi baquvvat tirnoqlar va kuchli oldingi oyoqlar hisobiga qoplangan. Bronenosets itdan ko'ra tezroq kavlay oladi! Bundan tashqari, u tirnoqlari va kuchli oldingi oyoqlaridan dushmanlaridan tezlikda yashirinish uchun uya kavlashda ham foydalanadi.

Bronenosetslarning ko'pchiligi o'z dushmanidan qochib yoki kavlagan uyasiga yashirilib jon saqlaydi. Bronenosetslarning faqat bir turi — uch tasmali bronenosets g'ujanak bo'lib olib jon saqlaydi. Mazkur bronenosetsning kosasi boshqalarnikiga nisbatan pishiqroq bo'lib, bu uning uchun himoyaning eng ishonchli usulidir.